

**TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.04/30.12.2019.FAR.32.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

MAMASOLIYEV ABRORBEEK ISROILJONOVICH

**O‘ZBEKISTONDA O‘STIRILADIGAN ODDIY ARPA (*HORDEUM
VULGARE* L.) URUG‘INI FARMAKOGNOSTIK O‘RGANISH**

15.00.02- farmatsevtik kimyo va farmakognoziya

**FARMATSEVTIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERAT**

Toshkent- 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferat mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of the abstract of doctor of philosophy dissertation (PhD)

Mamasoliyev Abrorbek Isroiljonovich

О‘zbekistonda o‘stiriladigan oddiy arpa (*Hordeum vulgare* L.) urug‘ini
farmakognostik o‘rganish..... 3

Мамасолиев Аброрбек Исроилжонович

Фармакогностическое изучение зерен ячменя обыкновенного (*Hordeum vulgare* L.), культивируемого в Узбекистане..... 21

Mamasoliyev Abrorbek Isroiljonovich

Pharmacognostic study of barley (*Hordeum vulgare* L.) seeds cultivated in
Uzbekistan..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 43

**TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.04/30.12.2019.FAR.32.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

MAMASOLIYEV ABRORBEEK ISROILJONOVICH

**O‘ZBEKISTONDA O‘STIRILADIGAN ODDIY ARPA (*HORDEUM
VULGARE* L.) URUG‘INI FARMAKOGNOSTIK O‘RGANISH**

15.00.02- farmatsevtik kimyo va farmakognoziya

**FARMATSEVTIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERAT**

Toshkent- 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/Far69 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent farmasevtika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasi (www.pharmi.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Pulatova Dildora Kaxramonovna
farmatsevtika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy oponentlar:

Yuldashev Zakirdjan Abidovich
farmatsevtika fanlari doktori, professor

Musayeva Nargiza Abidjanovna
farmatsevtika fanlari doktori

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston kimyo-farmatsevtika ilmiy tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent farmasevtika instituti huzuridagi DSc.04/30.12.2019.Far.32.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «26» 12 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100015, Toshkent sh., Mirobod tumani, Oybek ko'chasi, 45-uy. Tel.: (99871) 256-37-38, faks: (99871) 256-45-04, e-mail: www.info@pharmi.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent farmasevtika instituti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100015, Toshkent sh., Mirobod tumani, Oybek ko'chasi, 45-uy. Tel.: (99871) 256-37-38.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «10» 12 kuni tarqatildi.

(2024 yil «10» 12 dagi 84 raqamli reestr bayonnomasi)



K.S. Rizayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, t.f.d.

Y.S. Kariyeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, farm.f.d., professor

F.F.Urmanova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, farm.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, oshqozon yara kasalligi oshqozon-ichak trakti kasalliklari orasida eng keng tarqalgan kasalliklardan biridir. «Global Burden of Disease, Injuries and Risk Factors (GBD) Study» ma'lumotlariga asoslanib o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, 2019-yilda 204 mamlakat va hududda 8,1 millionga yaqin oshqozon yarasiga kasalligi qayd etilgan, bu esa 1990 yilga nisbatan 25,82% o'sganligini ko'rsatadi. Shu munosabat bilan mahalliy dorivor o'simlik xomashyosini zamonaviy fizik-kimyoviy usullar yordamida kimyoviy tahlil qilish, uning farmakoterapevtik samaradorligini tarkibidagi biologik faol moddalar bilan bog'lash, ular asosida oshqozon yarasiga qarshi samarali, kam zaharli dori vositalari va biologik faol qo'shimcha(BFQ)larni ishlab chiqish va tibbiyot amaliyotiga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda hozirgi kunda oshqozon yara kasalliklarini davolash uchun yangi istiqbolli dorivor o'simliklarni izlab topish, farmakognostik o'rganish, xavfsizligi va samaradorligini isbotlash, ular asosida yaratilgan dori vositalari va biologik faol qo'shimchalarni standartlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada polisaxaridlarga boy mahalliy dorivor o'simliklarni har tomonlama tahlil qilish, ushbu biologik faol moddalarning to'planish dinamikasini o'rganish, chinligi va boshqa sifat va miqdor ko'rsatkichlari bo'yicha standartlash, xavfsizlik mezonlari (og'ir metallar, radionuklidlar, pestitsidlar miqdori)ga mosligini isbotlashga qaratilgan tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda, jumladan, davlatning ijtimoiy siyosiy sohasidagi eng muhim vazifalaridan biri - aholi salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash, tibbiy yordam sifatini oshirish bo'yicha muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 22-maqsadida «Farmatsevtika sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 3 baravar ko'paytirish va mahalliy bozorni ta'minlash darajasini 80 foizga yetkazish»¹ kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu borada, mahalliy floraning yangi istiqbolli dorivor o'simliklarini izlab topish, tahlil qilish, dominant biologik faol moddalarni ajratib olib, ular asosida dori vositalar va biologik faol qo'shimchalarni yaratish, tibbiyot amaliyotiga joriy qilish maqsadida me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 apreldagi «2019-2021-yillarda respublikaning farmatsevtika tarmog'ini yanada jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5707, 2022-yil 20-maydagi «Dorivor o'simliklar xomashyo bazasidan samarali foydalanish, qayta ishlashni qo'llab-quvvatlash orqali qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-139 farmonlarida, 2019-yil 30-dekabrda «O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika tarmog'ida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi PQ-4554 - son, 2020-yil 10-apreldagi «Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni.

mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4670 qarorlari va mazkur sohada tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining VI «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ilmiy adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, hatto XI asrda bizning buyuk vatandoshimiz, entsiklopedik olim Ibn Sino oshqozon yara kasalliklarini davolashda arpa donlaridan foydalangan. Hozirgi kunda X.X.Xolmatov, X.M.Komilov, F.F.Urmanova, U.M.Azizov, X.U.Aliyev, U.X.Usmonov kabi olimlarimizning mahalliy xomashyo asosida oshqozon yara kasalliklarini davolovchi dori vositalari va biologik faol qo'shimchalarni yaratish va ilmiy tibbiyotga tatbiq etish bo'yicha olib borgan ishlari muhim ahamiyatga ega.

Dunyo miqyosida oshqozon yara kasalliklarini davolash, oldini olishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va dorivor o'simliklardan foydalanish bo'yicha M.Gupta, B.Kapoor, D.Kumadon, P.K.Singh, T.S.Easwari, N.H.Shosha, N.M.Fahmy, S.B.Marques, B. Mc.Junkin, J.H.Pyo, R.Manfredini, Z.Li, J.I. Kim, N.Salari, N.Darvishi va boshqa olimlar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarini alohida ahamiyatlidir.

Mazkur dissertatsiya ishi O'zbekistonda o'stiriladigan oddiy arpa donlarini farmakognostik o'rganish, chinligini aniqlash uchun uning morfologo - anatomik diagnostik belgilari, asosiy ta'sir etuvchi moddalarini aniqlashning sifat va miqdor tahlillari, hamda xomashyosi asosida yaratilgan sifatli dori vositasi va biologik faol qo'shimchasini standartlash bo'yicha tizimli olib borilgan birinchi ilmiy tadqiqot ishi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent farmatsevtika institutining «Mahalliy dorivor o'simliklar va koordinatsion birikmalar asosida original dori vositalarini ishlab chiqish va tibbiyot amaliyotiga tatbiq etish» mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oddiy arpa o'simligini farmakognostik o'rganish, uni tibbiyot amaliyotida qo'llash imkoniyatini asoslash va uning asosida oshqozon yara kasalliklariga qarshi ishlab chiqilgan samarali dori vosita va biologik faol qo'shimchani yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

adabiyotlarni tanqidiy tahlili asosida oshqozon yara kasalliklarini oldini olish va davolash uchun o'simliklardan olingan yangi dori vositalar va biologik faol qo'shimchalarni yaratish va standartlashning maqsadga muvofiqligini ilmiy asoslash;

arpa doni tarkibidagi biologik faol moddalarning asosiy guruhlar tarkibi va miqdorini aniqlash;

arpa donlari tarkibidagi asosiy ta'sir etuvchi moddalar - polisaxaridlarni ajratib olish va identifikatsiya qilish, ularni to'planish dinamikasini o'rganish va olingan ma'lumotlar asosida xomashyo tayyorlashning mo'tadil muddatlarini aniqlash;

xomashyoni standartlashtirish uchun zarur bo'lgan chinlik va sifat ko'rsatkichlarini ishonchli mezonlarini ishlab chiqish;

xomashyodan olingan quruq ekstrakt asosida tayyorlangan sashe - «Barleynol»ni chinlik va sifat ko'rsatkichlarini aniqlash;

«Barleynol» sashe dori vositasi uchun korxona farmakopeya maqolasini ishlab chiqish va uni tibbiyotda qo'llashga ruxsat olish uchun O'zR SSV huzuridagi «Farmasevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi» Davlat muassasasiga taqdim etish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida O'zbekistonda yetishtirilgan oddiy arpa (*Hordeum vulgare* L.) donlari, ulardan olingan quruq ekstrakt va ushbu ekstrakt asosidagi dori vositasi va biologik faol qo'shimcha olingan.

Tadqiqotning predmeti oddiy arpa donlarining biologik faolligini ta'minlovchi biologik faol moddalar majmuasini aniqlash, ulardan olingan quruq ekstraktni standartlash, hamda ushbu quruq ekstrakt asosida olingan dori vositasi va BFQni tibbiyot amaliyotiga tatbiq etish bilan bog'liq masalalarni hal qilishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarni olib borishda tabiiy birikmalarni tahlil qilishning zamonaviy fizik-kimyoviy usullari (qog'oz va yupqa qatlam xromatografiya, yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi, gaz xromatografiyasi, induktiv bog'langan plazmali mass-spektrometriya, ultrabinafsha va infraqizil-spektroskopiya, gaz suyuqlik xromatografiyasi, gamma - spektrometriya), shuningdek an'anaviy farmakognostik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor O'zbekistonda yetishtirilgan oddiy arpa (*Hordeum vulgare* L.) donlarining mikroskopik tahlili o'tkazilgan va o'ziga xos bo'lgan diagnostik belgilari (perikarpiy, urug' qobig'i, aleyron qatlami, urug' murtak va endosperm) aniqlangan;

oddiy arpa (*Hordeum vulgare* L.) donlari tarkibidagi asosiy biologik faol moddalar (polisaxaridlar, lipidlar, fenolkarbol kislotalar, suvda eruvchi vitaminlar, aminokislotalar, makro- va mikroelementlar)ning tarkibi va miqdori aniqlangan;

oddiy arpa donlarining o'ziga xos faolligini belgilovchi polisaxarid kompleksi ajratib olingan, ularning tarkibi va miqdori aniqlangan, shuningdek, polisaxaridlar to'planish dinamikasi asosida xomashyoni pishib yetilish davrida ularni maksimal darajada bo'lishi isbotlangan, hamda olingan natijalar asosida mo'tadil tayyorlash va saqlash muddati sharoitlari aniqlangan;

oddiy arpa donlarining quruq ekstraktini standartlash va uning asosida dori vositasi hamda biologik faol qo'shimcha olish uchun zarur bo'lgan chinlik va sifat ko'rsatkichlarining ilmiy asoslangan mezonlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Hordeum vulgare L. donlarining o'tkir toksikligi hamda yaraga qarshi spetsifik faolligi aniqlangan hamda uning samaradorligi solishtirma dori vositasi «Katta zubturm barglari»dan kam emasligi tajribalarda isbotlangan;

Hordeum vulgare L. donlari quruq ekstrakti asosida ishlab chiqilgan sashe shaklidagi dori vositasining xavfsizligi (o'tkir va nimo'tkir toksikligi, kumulyativ va

mahalliy–qitiqllovchi ta’sirlari) hamda spetsifik faolligi aniqlanib, uning bezararligi va farmakoterapevtik faolligi bo’yicha solishtirma preparatdan kam emasligi isbotlangan;

Yaraga qarshi ta’sirga ega «Barleynol» dori vositasini ishlab chiqarish va tibbiyot amaliyotida qo’llash uchun ruxsat olish maqsadida tegishli me’yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olingan natijalarning ishonchlilik darajasi zamonaviy fizik-kimyoviy, farmakognostik, farmakologik va statistik usullardan foydalanganligi bilan belgilandi. Shuningdek natijalarni statistik ishlashda Vilkokson-Mani-Uitnining U-me’zoni va Styudentning t-me’zonidan foydalanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oshqozon yara kasalligini davolash xossasiga ega o’simlik dori vositasi yangi manbasini tavsiya etish uchun asos bo’lgan oddiy arpa (*Hordeum vulgare* L.) donlarining anatomik-diagnostik belgilari, kimyoviy tarkibi o’rganilganligi, hamda, uning asosida olingan quruq ekstraktning ilmiy asoslangan standartlash tizimi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati «SO‘QOQ GILOSI» FX bilan birgalikda oddiy arpa (*Hordeum vulgare* L.) donlarining quruq ekstrakti asosida «Barleynol» dori vositasi uchun korxona farmakopeya maqolasi loyihasi ishlab chiqilganligi hamda «Farmasevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi» Davlat muassasasiga tibbiyot amaliyotida qo’llash uchun ko’rib chiqishga taqdim etilganligi, «Barley E active» biologik faol qo’shimchasi uchun Texnik shartlar va uni ishlab chiqarish bo’yicha Texnologik yo’riqnoma ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligi bilan izohlanadi, bu esa mahalliy yaraga qarshi dori vositalari hamda BFQlar assortimentini kengaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. O‘zbekistonda o‘stiriladigan oddiy arpa (*Hordeum vulgare* L.) urug’ini farmakognostik o’rganish bo’yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

«Barleynol» dori vositasi uchun korxona farmakopeya maqolasi loyihasi O‘zR SSV huzuridagi «Farmasevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi» Davlat muassasasiga ro’yxatdan o’tkazish uchun topshirilgan («Farmasevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi» Davlat muassasasining 2024 yil 1 maydagi 41/11-6087- son xati, Sog’liqni saqlash vazirligining 2018-yil 15-oktyabrdagi 8n-3/280-son xati). Ushbu me’yoriy hujjatning tasdiqlanishi oshqozon yara kasalligini davolovchi mahalliy dori vositalari assortimentini kengaytirish imkonini beradi;

«Barley E active» biologik faol qo’shimcha uchun Texnik shartlar (Ts 304475996-02:2020) hamda uni ishlab chiqarish bo’yicha Texnologik yo’riqnoma (TI 304475996-02:2021) O‘zbekiston Respublikasi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan. Natijada «CORALL PHARM» MChJda kapsula shaklidagi ozuqaga qo’shimchani ishlab chiqarish imkonini bergan;

o‘tkazilgan klinik oldi sinovlar natijasida oddiy arpa (*Hordeum vulgare* L.) donlarining spetsifik farmakologik faolligi hamda o‘tkir zaxarli emasligi isbotlangan (Sog’liqni saqlash vazirligining 2018-yil 15-oktyabrdagi 8n-3/280-son xati).

Natijada ishonchli yaraga qarshi faollikga ega bezarar preparatlar va biologik faol qo'shimchalarni ishlab chiqarish imkonini bergan;

o'tkazilgan klinik oldi sinovlar natijasida sashe shaklidagi «Barleynol» dori vositasining yaraga qarshi farmakologik faolligi hamda xavfsizligi isbotlangan (Sog'liqni saqlash vazirligining 2018-yil 15-oktyabrdagi 8n-3/280-son xati). Natijada yuqori samarali, bezarar dori vositasiga me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash va tibbiyot amaliyotida qo'llashga ruxsat olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi olish uchun asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5ta maqola, jumladan 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, beshta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 100 sahifani tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekt va predmetlari tavsiflangan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berigan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashir etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Birinchi bob «**Oshqozon yara kasalliklarini davolashda qo'llaniladigan o'simliklardan olingan dori vositalarining hozirgi kundagi holati va ularni davolashda dorivor o'simliklardan foydalanish istiqbollari**» mavzusi bo'lib, unda oshqozon yara kasalligini kelib chiqish sabablari va davolash usullari, gastroenterologiyada fitoterapiyaning o'rni, oddiy arpa haqida umumiy ma'lumotlar, botanik tavsifi va sistematik holati, kelib chiqish tarixi, geografik tarqalishi va ekin maydonlari, *Hordeum* L. turkumi vakillarining kimyoviy tarkibi to'g'risida ma'lumot, xalq tabobatida qo'llanilishi va iqtisodiy ahamiyatini qamrab oluvchi adabiyotlar sharhidan iborat.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida «**Tadqiqot ob'ekti va tahlil usullari**»ga bag'shlangan bo'lib bu yerda tadqiqot ob'ekti, kimyoviy va farmakognostik tahlil usullari keltirilgan.

Oddiy arpa donlarida biologik faol moddalarni dastlabki identifikatsiya qilishda gaz xromatografiyasi, yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi, induktiv bog'langan plazmali mass-spektrometriya usullaridan foydalanilgan. Kimyoviy tahlilda qo'llanilgan xomashyo namunalari va reaktivlar O'zR DF I jildi (O'zR DF 2.8) va RF XIII DF da keltirilgan usullar yordamida tayorlandi.

Dissertatsiyaning «**Oddiy arpa donlarining kimyoviy tarkibini o'rganish**» deb nomlangan uchinchi bobida o'rganilayotgan o'simlikni xomashyosini yig'ib olish va uni tahlilga tayyorlash, xomashyo tarkibidagi biologik faol moddalarning

asosiy guruhlarini aniqlash, identifikatsiya qilish va miqdorini aniqlash bo'yicha ma'lumotlar bayon etilgan.

Tadqiqotning birinchi bosqichida umumetirof etilgan sifat reaksiyalari va tahlilning xromatografik usullari yordamida oddiy arpa donlari tarkibidagi unung o'ziga xos faolligini belgilovchi biologik faol moddalar majmui aniqlangan.


Birlamchi metabolitlari mono-, di - va polisaxaridlar, oqsillar, erkin aminokislotalar, vitaminlar, organik kislotalar va lipidlardan, ikkilamchi metabolitlari fenolkarbon kislotalar va mineral moddalar iborat ekanligi ko'rsatildi (1-jadval).

1-jadval

Oddiy arpa donlarining kimyoviy tarkibi

Biologik faol moddalarning aniqlangan guruhlari	Identifikatsiya qilingan birikmalar
Monosaxaridlar	Glyukoza, fruktoza, saxaroza, maltoza
Oqsil	Umumiy oqsil
Lipidlar	Neytral lipidlar, erkin yog' kislotalari
Vitaminlar	Riboflavin, niatsin, piridoksin, L-askorbin kislota, nikotinamid
Fenolkarbon kislotalar	Xlorogen kislota, rozmarin kislota

Aminokislotalarining sifat va miqdoriy tarkibini aniqlash Agilent Technologies 1200 xromatografida YuSSX usuli yordamida amalga oshirildi, bunda 75x4,6mm Discovery HS C₁₈ karnay, DAD detektoridan foydalanildi. Xromatografik tahlil gradientli elyurlash rejimida o'tkazildi. A eritma (qo'zg'aluvchan faza) - 0,14 M natriy asetat va 0,05% trietilamin aralashmasi (pH 6,4), B eritma - asetonitril. Elyuent uzatish tezligi- 1,2 ml/daq, yutilish - 269 nm (1-rasm, 2- jadval).



1-rasm. Arpa donlari aminokislotalarining xromatogrammasi

Arpa donlarining aminokislota tarkibi

№	Aminokislotalar	Miqdori, mg/g	Umumiy yig'indisidan, %
1	Asparagin kislota	0.09	3.11
2	Glyutamin kislota	0.12	4.15
3	Serin	0.04	1.38
4	Glitsin	0.04	1.38
5	Asparagin	0.04	1.38
6	Gyutamin	0.26	9.00
7	Sistein	0.18	6.23
8	Treonin*	0.07	2.42
9	Arginin	0.47	16.26
10	Alanin	0.20	6.92
11	Prolin	0.09	3.11
12	Tirozin	0.21	7.27
13	Valin*	0.05	1.73
14	Metionin*	0.56	19.38
15	Izoleytsin*	0.05	1.73
16	Leytsin*	0.05	1.73
17	Gistidin	0.13	4.50
18	Triptofan*	0.07	2.42
19	Fenilalanin*	0.14	4.84
20	Lizin HCl*	0.03	1.04
Almashinilmaydigan aminokislotalar yig'indisi		1.02	35.29

*-almashinilmaydigan aminokislotalar

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, arpa donlarining o'ziga xos aminokislotalar to'plami 20 ta moddani o'z ichiga oladi, ulardan 8 tasi almashinilmaydigan aminokislotalar hisoblanadi. Shuni takidlash joizki, arpa donlarida eng ko'p miqdorda metionin kislota bo'lib, u og'ir va toksik moddalarni organizmdan chiqarishga, to'qimalarni parchalanishini oldini olib tiklanishiga yordam beradi. Oddiy arpa donlari oshqozon yara kasalligini davolovchi vosita sifatida tavsiya etilyotganligini inobatga olib, yuqoridagi ma'lumotlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Lipidlarni o'rganish. Xomashyoning neytral lipidlar tarkibiy qismi «Silufol» plastinkalarida yupqa qatlamli xromatografiya (YQX) usuli bilan aniqlandi. NL ajratish uchun geksan - dietilefir (4:1, 3: 2 va 7: 3) erituvchilar aralashmasi ishlatilgan.

Yog' kislotalarining (YK) tarkibini aniqlash uchun NL bir qismi ishqorning spirtli eritmasi bilan gidrolizlandi. Ajratilgan YK yangi tayyorlangan diazometan

bilan metillandi. YK metil efirlari (YKME) silikagelli preparativ YQX usulida geksan - efir (4:1) erituvchilar sistemasida yot aralashmalaridan tozalandi. Sorbentdagi YKME zonasi yod bug'lari bilan ochildi, plastinkada dog' hosil bo'lgan joy qirib olinib, xloroform bilan silikageldan bir necha marta eluirlandi. Xloroformli eluatlar birlashtirildi, rotorli quritgichda xloroform bug'latildi. Tozalangan qoldiq YKME geksanda eritildi va gaz suyuqlik xromatografiya (GSX) usulida alanga-ionlanish detektorli Agilent 6890 N xromatografida, HP-5 qo'zg'almas fazali 30m x 0.32 mm o'lchamli kapillyar kolonka yordamida, tashuvchi gaz-geliy, dasturlash tezligi – 30,0 ml/daq, dasturlash harorati 150-270°C, da tahlil qilindi.

Arpa donlari neytral lipidlarining yog' kislotalari tarkibi 3-jadvalda keltirilgan.
3-jadval

Arpa donlari neytral lipidlarining yog' kislotalari tarkibi, %Σ YK

№	Yog' kislotalar	Miqdori, %	Rat. formula
1	Kaprin, 10:0	izlari	$\text{CH}_3(\text{CH}_2)_8\text{COOH}$
2	Laurin, 12:0	izlari	$\text{CH}_3(\text{CH}_2)_{10}\text{COOH}$
3	Miristin, 14:0	0,16	$\text{CH}_3(\text{CH}_2)_{12}\text{COOH}$
4	Pentadekan, 15:0	izlari	$\text{CH}_3(\text{CH}_2)_{13}\text{COOH}$
5	Palmitin, 16:0	13,86	$\text{CH}_3(\text{CH}_2)_{14}\text{COOH}$
6	Palmitolein, 16:1n7	izlari	$\text{CH}_3(\text{CH}_2)_5\text{CH}=\text{CH}(\text{CH}_2)_7\text{COOH}$
7	Margarin, 17:0	0,83	$\text{CH}_3(\text{CH}_2)_{15}\text{COOH}$
8	Stearin, 18:0	1,46	$\text{CH}_3(\text{CH}_2)_{16}\text{COOH}$
9	Olein, 18:1n9+Linolen, 18:3n3*	23,96	$\text{CH}_3(\text{CH}_2)_7\text{CH}=\text{CH}(\text{CH}_2)_7\text{COOH};$ $\text{CH}_3(\text{CH}_2\text{CH}=\text{CH})_3(\text{CH}_2)_7\text{COOH}$
10	Linol, 18:2n6	57,19	$\text{CH}_3(\text{CH}_2)_3(\text{CH}_2\text{CH}=\text{CH})_2(\text{CH}_2)_7\text{COOH}$
11	Araxin, 20:0	0,52	$\text{CH}_3(\text{CH}_2)_{18}\text{COOH}$
12	Eykozen, 20:1n11	1,28	$\text{CH}_3(\text{CH}_2)_7\text{CH}=\text{CH}(\text{CH}_2)_9\text{COOH}$
13	Begen, 22:0	0,24	$\text{CH}_3(\text{CH}_2)_{20}\text{COOH}$
14	Eruk, 22:1n9	0,29	$\text{CH}_3(\text{CH}_2)_7\text{CH}=\text{CH}(\text{CH}_2)_{11}\text{COOH}$
15	Lignotserin, 24:0	0,21	$\text{CH}_3(\text{CH}_2)_{22}\text{COOH}$
Σto'yingan YK		17,28	
Σto'yinmagan YK		82,72	

*Ushbu yog' kislotalari berilgan GSX sharoitida ajralmaydi, bitta cho'qqida chiqadi.

Natijalar arpa donlari tarkibida 15 ta YK bo'lib, ulardan palmitin, linol, olein va linolen kislotalari nisbatan ko'proq, to'yinmagan yog' kislotalarining umumiy ulushi (82,72%) to'yingan (17,28%) yog' kislotalar miqdoridan to'rt baravar ko'proq ekanligini ko'rsatdi. YKME ning IQ-spektirida shu moddalar uchun xarakterli bo'lgan yutilish kuzatildi.

Suvda eriydigan vitaminlarni o'rganish. Xomashyoning vitamin tarkibi va miqdori Agilent Technologies 1200 xromatografida yuqori samarali suyuqlik xromatografiya usuli bilan aniqlandi. Xromatografiya shartlari: bunda 5 mkm, 4,6x150 mm, Eclipse XDB-C18 kolonkalarida (teskari faza bilan) 254 nm, 290 nm diod matritsali detektor(DAD)dan foydalanildi. A eritma -sirka kislotasining 0,5% eritmasi, pH 1,7, B eritma- atsetonitril eritmasi. Elyuent oqim tezligi-1 ml/daq, namuna hajmi -20 mkl, termostatning harorati -25°C (4- jadval).

4-jadval

Arpa donlaridagi suvda eriydigan vitaminlarning tarkibi

Vitaminlar	B ₂	B ₆	B ₃	C	PP
Miqdori, mg/kg	5.470±0.15	3.800±0.11	2.900±0.09	1.456±0.06	0.230±0.01
Jami	15.926±0,27				

Jadvaldan ko'rinib turibdiki xomashyo tarkibida B guruh vitaminlari, nikotinamid va L-askorbin kislotasi bor. Ularning eng ko'p miqdori B₂, B₆ va B₃ vitaminlariga to'g'ri keladi. C va PP vitaminlari ularga nisbatan kamroq.

Element tarkibini o'rganish. Xomashyo elementlar tarkibini aniqlash, ionlash natijasida hosil bo'lgan ionlarning massa-zaryad nisbatini aniqlashga asoslangan, moddalarni identifikatsiya qilish va shu bilan birga miqdoriy tarkibini aniqlashga imkon beradigan eng samarali, induktiv bog'langan plazmali mass-spektrometriya usuli yordamida ISP-MS NEXION-2000 («Perkin Elmer», Inc., AQSh) mass-spektrometrda amalga oshirildi. Oddiy arpa donlari tarkibida 41 ta mineral elementlarning mavjudligi aniqlandi.


Aniqlangan mineral elementlarning miqdorini, kamayish tartibida quyidagi ketma-ketlikda joylashtirilishi mumkin:

K>P>Ca>Mg>S>Si>Na>Al>Fe>Mn>Zn>B>Cu>Ba>Cr>Rb>Ti>Mo>Sr>Pb>Ni>Se>Sn>Li>Ga>Zr>V>Co>As>U>W>Cd>Hg>Ag>Be>Sb=Nb>Ge>Re=Tl=Bi

Oddiy arpa donlari tarkibidagi og'ir metallarning miqdori deyarli ifloslanmagan hududlarning kontsentratsiyasiga mos keladi.

O'rganilayotgan xomashyodagi birinchi navbatda nazorat qilinishi zarur bo'lgan zaharli og'ir metallar (As, Pb, Hg, Cd) miqdori, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va O'zR DF I jildi nashrida dorivor o'simlik xomashyilari va ular asosida olingan dori vositalari uchun ruxsat etilgan qiymatlar doirasida ekanligi, bu esa uning ekologik bezararligini ko'rsatadi

Oddiy arpa donlarini o'ziga xos biologik faolligini belgiluvch polosaxaridlarni asosiy ta'sir qiluvchi biologik faol moddalari sifatida o'rganishga alohida ahamiyat berildi. Polisaxaridlarni o'rganishga oid eksperimental ma'lumotlar dissertatsiya ishining «**Oddiy arpa donlarini polisaxaridlar majmuini o'rganish**» to'rtinchi bobida keltirilgan. O'rganilayotgan xomashyodan polisaxaridlarini ajratib olish 2-rasmda keltirilgan chizma bo'yicha amalga oshirilgan.



2- rasm. Oddiy arpa donlaridan turli guruh polisaxaridlarini ajratib olish chizmasi

Oddiy arpa donlaridan ajratib olingan polisaxaridlarning monosaxarid tarkibi bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlar 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Arpa donlari polisaxaridlarining tarkibi va monosaxarid tarkibi

PS	Unum, %	Monosaxarid qoldiqlarining nisbati					
		Gal	Glc	Ara	Xyl	Rha	UAc
SEPS-s	1.4	1.0	5.5	2.2	3.2	-	+
SEPS-i	8.5	1.0	9.0	iz	1.8	-	+
PM	14.5	1.0	11.5	-	1.2	iz	+
GMS-A	10.2	7.5	2.5	1.0	1.5	-	+
GMS-B	1.75	1.0	4.1	1.0	1.6	iz	+

Izoh: PS-polisaxaridlar, SEPS-s - sovuq suvda ajratib olingan suvda eruvchan polisaxaridlar, SEPS-i – issiq suvda ajratib olingan suvda eruvchan polisaxaridlar, PM-pektin moddalari, GMS-A – po'stloq gemitsellyulozalari, GMS-B - endosperm gemitsellyulozalari, Gal-galaktoza, Glc - glyukoza, Ara-arabinoza, Xyl -ksiloza, Rha - ramnoza, UAc - uron kislotasi.

Ajratib olingan polisaxaridlar identifikatsiyasi IQ-spektrometriya usulida o'tkazildi (6-jadval). Polisaxaridlarning IQ - spektrlari «Perkin-Elmer» firmasining 2000 model Fyure IQ - spektrometrda qayd qilindi.

6-jadval

Arpa donlaridan ajratib olingan polisaxaridlarning IQ - spektrlari

PS	Yutilish sohalari, sm^{-1}
SEPS-s	3340.41, 2923.80, 1646.89, 1417.74, 1320.27, 1076.87, 895.10, 549.88
SEPS-i	3851.86, 3766.98, 3390.55, 2931.30, 2128.85, 1660.99, 1437.79, 1162.35, 1082.51, 1014.89, 850.34, 576.18
PM	3427.16, 2924.36, 2851.54, 1648.32, 1457.34, 1158.04, 1018.18, 573.13
GMS-A	3409.26, 2920.90, 2862.74, 2334.94, 1742.65, 1658.39, 1446.15, 1159.06, 1018.18, 563.05
GMS-B	3779.02, 3452.11, 2920.58, 1655.25, 1569.23, 1417.09, 1160.83, 1076.92, 1017.17, 573.46

Klinik oldi farmakologik tekshiruvlar shuni ko'rsatdiki, oddiy arpa va uning asosidagi «Barleynol» quruq ekstrakti deyarli zaharli bo'lmagan va organizmga hech qanday nojo'ya ta'sir ko'rsatmasdan, oshqozon yarasini davolashda aniq ta'sirga ega, bu jihatdan O'zbekiston Respublika Davlat reestrda ro'yxatga olingan katta zubturm barglaridan kam emas.

Qayd etilgan holat, shuningdek, polisaxaridlarning oddiy arpa donlarida yuqori miqdori va uning respublikamiz hududlarida keng etishtirilishi tavsiya etilayotgan xomashyodan foydalanishning keng istiqbollarini ochib beradi.

Oddiy arpa donlarini tibbiyot amaliyotiga tatbiq etish uchun, ularni standartlash bilan bog'liq tadqiqotlar o'tkazilgan. Xomashyoni standartlash bo'yicha uslubiy yondoshuvlar va tajriba ma'lumotlari **«Oddiy arpa donlari, uning quruq ekstrakti va «Barley E active» biologik faol qo'shimchasini standartlash»** deb nomlangan dissertatsiya ishining beshinchi bobida o'z aksini topgan.


Xomashyoning chinligi uning tashqi va anatomik-diagnostik belgilarini o'rganish, asosiy tasir etuvchi moddalarni sifat reaksiyalari natijalari bo'yicha aniqlandi. Makroskopik tahlil yordamida aniqlangan xomashyoning tashqi belgilari adabiyotlardan olingan ma'lumotlarga mos keldi.

Oddiy arpa donalarini mikroskopik o'rganish natijasida quyidagi diagnostik ahamiyatga ega belgilari aniqlandi:

- xlorofillsiz murtak, donning asosida joylashgan bo'lib uning botiq tomoniga qaragan (3-rasm).

- urug'lanishga qadar tugunchaning perikarpiy va urug' qobig'i aniq farqlanadi;
- urug' murtakning devorlari bir qavat tashqi epidermis, ko'p qavatli rangsiz parenxima hujayralari, tarkibida xlorofill bo'lgan parenxim to'qimasidan iborat;

- ekzokarp turli xil maxsus hujayralarni o'z ichiga oladi: silikatlashgan do'ngliklar, juft hujayralar.



3-rasm. Arpa donining ko'ndalang kesimdagi mikroskopik tuzilishi:

a, б, в, г —qismlar, д —endosperm.

Shartli belgilar: 1 – yuqori gul qobig'i, 2 – epidermis, 3 – parenxima hujayralari, 4 – naysimon hujayra, 5 – aleyron qatlam, 6 – kraxmalli endosperm, 7 – o'tkazuvchi bog'lam.

Xomashyoning chinligini aniqlash uchun suvli ajratmadan polisaxaridlarni etanol bilan cho'ktirish reaksiyasi tavsiya etildi.

Oddiy arpa donalarining spetsifik biologik faolligi polisaxaridlar bilan bog'liq ekan, xomashyoni kimyoviy standartlash jarayonida u xomashyoni chinligi va sifatligini belgilovchi asosiy mezon sifatida qabul qilingan.

Oddiy arpa donalaridagi polisaxaridlarni miqdoriy aniqlash uchun ularni quyultirilgan suv ekstraktlaridan etanol bilan cho'ktirishga asoslangan gravimetriya usuli ishlatilgan. Polisaxaridlarni miqdoriy aniqlash natijalariga asoslanib Respublikaning turli hududlarida tayyorlangan oddiy arpa donlarining 5 ta partiyasida polisaxaridlar miqdorini aniqlash natijalariga asosan uning xomashyodagi miqdori 24% kam bo'lmasligi belgilandi.

Xomashyo tarkibida polisaxaridlar to'planish dinamikasini o'rganish ularning miqdori o'simlik rivojlangani sayin sezilarli o'zgarishlarga uchrashini ko'rsatdi. Donning sutli davrida bu ko'rsatkich ancha past bo'lib ($20,85 \pm 0,94\%$), so'ngra sekin-asta ko'payib - mumli davrida ($21,98 \pm 0,65$) va keyinchalik kuzda o'simlikning to'liq yetilish davrida maksimal darajaga yetadi ($24,40 \pm 0,56\%$). Shu sababli ko'rsatilgan muddat xomashyoni tayyorlashning optimal muddati sifatida belgilandi. Polisaxaridlar miqdorining mavsumiy dinamikasi haqidagi ma'lumotlar asosida biz oddiy arpa donlarini tayyorlash va quritish bo'yicha yo'riqnoma ishlab chiqishda foydalandik.

O‘zR DF I jildi (O‘zR DF 2.8) «Urug’lar» maqolasi ko‘rsatmalariga mos ravishda oddiy arpa xomashyosining sifatini belgilovchi mezonlarini ishlab chiqishda boshqa sonli ko‘rsatkichlar: namlik, umumiy kul va xlorid kislotaning 10%li eritmasida erimaydigan kul, maydalanganlik darajasi va aralashmalar miqdori ham aniqlandi.

Shuningdek, oddiy arpa donlari mikrobiologik tozaligi bo‘yicha o‘simlik xomashyosiga qo‘yladigan talablarga to‘la mos kelishi ko‘rsatilgan.

Tabiiy saqlash sharoitida oddiy arpa xomashyosining turg’unligi o‘rganish uning tashqi belgilari va son ko‘rsatkichlarini 3,5 yil davomida deyarli o‘zgarmasligini ko‘rsatdi. Shuning uchun oddiy arpa donlari tayyorlangan vaqtdan boshlab 3 yil davomida foydalanish tavsiya etiladi.

Turli davlatlarning me'yoriy hujjatlariga kiritilgan dorivor o‘simlik vositalarini sifati va tadqiqot usullariga ko‘yladigan talablarni uygunlashtirishning zamonaviy an'analari hisobga olgan holda, taklif etilayotgan xomashyoning sifati va xavfsizligini me'yorlashtiruvchi ko‘rsatkichlar qatorida toksik og‘ir metallar, radionukleidlarning qoldiq miqdori aniqlandi.

Tadqiqot natijalari oddiy arpa donlarining ekologik tozaligi va qo‘llashda xavfsizligi to‘g‘risida xulosa chiqarishga imkon berdi.

Shunday qilib, o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida taklif etilayotgan xomashyoning sifat ko‘rsatkichlariga qo‘yladigan talablar darajasini asoslash uchun kerakli ma’lumotlar olingan.

Keyingi tadqiqotlar «SO‘QO‘Q GILOSI» FX bilan birgalikda chiqimi 15% gacha bo‘lgan, tarkibida 71% gacha polisaxaridlar saqlagan va birlamchi xomashyoning fiziologik faollikni saqlab qolgan oddiy, tejamkor (xom ashyodan faol moddalarni ajratish suv bilan amalga oshiriladi) va xavfsiz texnologiyadan foydalangan holda olingan quruq ekstrakti standartlashtirishga qaratilgan.

Quruq ekstrakti standartlashtirish, shartli ravishda «Barleynol» deb atalgan, huddi xomashyoni standartlash kabi amalga oshirildi, ya’ni xomashyo - dori vositasi qatoridagi ko‘rsatkichlar, me’yorlar va sifatni baholash usullari unifikatsiyasini ta’minlovchi yagona «tutash» standartlash usulidan foydalanildi. Shu bilan birga, oddiy arpa donalarining quruq ekstrakti sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha farmakopeya talablariga javob berishi ko‘rsatildi (7-jadval).

7-jadval

«Barleynol» quruq ekstraktining barqarorligini tabiiy saqlash usuli yordamida o‘rganish natijalari

Ko‘rsatkichlar nomi	MH talablari	Dastlabki namuna	MH muvofiqligi (oylar muddatida)					
			6 oydan so‘ng	12 oydan so‘ng	18 oydan so‘ng	24 oydan so‘ng	30 oydan so‘ng	36 oydan so‘ng
Tashqi ko‘rinishi	och kul rangli, o‘ziga xos ta’mli, gigroskopik, quruq sochiluvchan kukun	muvof.	muvof.	muvof.	muvof.	muvof.	muvof.	muvof.

7-jadval davomi

Chinligi	quruq ekstraktning chinligini aniqlash uchun suvli ajratmalardagi polisaxaridlarni spirt bilan cho'ktirish tavsiya etiladi (ko'p miqdorda loyqasimon quyuq massa hosil bo'ladi, turganda cho'kmaga tushadi).	muvof.	muvof.	muvof.	muvof.	muvof.	muvof.	muvof.
Eruvchanligi	suv-spirtli aralashmalarda oson eriydi.	muvof.	muvof.	muvof.	muvof.	muvof.	muvof.	muvof.
Quritilganda yo'qotilgan namlik	5% dan ko'p emas	3.74	3.82	3.88	3.96	4.17	4.62	4,73
Mikrobiologik tozalik(1 g namunada)	aerob bakteriyalar 10^3 dan ko'p emas; Xamirturush va mog'or qo'ziqorinlari 10^2 dan ko'p emas; Enterobacteriaceae, Pseudomonas aeruginosa, Staphylococcus aureus yo'qligibo'lmasligi lozim	muvof.	muvof.	muvof.	muvof.	muvof.	muvof.	muvof.
Polisaxaridlar miqdori	kamida 60%	71.1	70.65	70.73	70.5	69.92	70.38	70,26

Olingan ma'lumotlar asosida «SO'QO'Q GILOSI» FX bilan birgalikda oddiy arpa donlari asosida olingan quruq ekstraktidan «Barleynol» sashe dori shaklini tibbiyot amaliyotida qo'llashga ruxsat olish uchun korxona farmakopeya maqolasi

(KFM) loyihasi tuzildi va «Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi» Davlat muassasasiga taqdim etildi.

Oddiy arpa donalarining quruq ekstrakti tarkibida polisaxaridlarning yetarli darajada yuqori miqdori (71% gacha) va bu bilan bog'liq uning biologik faolligi, shuningdek dastlabki xomashyoni hammabopligini e'tiborga olib, biz uning asosida oshqozon yarasiga qarshi samarali biologik faol qo'shimcha «Barley E active»ni ishlab chiqdik.

Ushbu o'simlik vositalarini ishlab chiqarishni o'zlashtirish respublikada import o'rnini bosuvchi va eksport salohiyatini kengaytiruvchi mahalliy o'simlik xomashyosidan foydalanish, shuningdek, aholini samarali va arzon hayotiy muhim dori vositalari va biologik faol qo'shimchalar bilan ta'minlash imkoninini beradi.

Quruq ekstrakt asosida olingan «Barley E active» biologik faol qo'shimchasini kapsulalar shaklida ishlab chiqarishga tatbiq qilindi.

Arpa donlarining quruq ekstrakti asosidagi «Barley E active» biologik faol qo'shimchasiga Texnik shartlar (Ts 304475996-02:2020) va uni ishlab chiqarish bo'yicha Texnologik yo'riqnoma (TI 304475996-02:2021) ishlab chiqildi va tasdiqlandi. «Barley E active» biologik faol qo'shimchasini ishlab chiqarish va qo'llash uchun O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ruxsatnoma olindi.

XULOSALAR

1. Mahalliy madaniylashtirilgan yangi istiqbolli dorivor o'simlik – oddiy arpa (*Hordeum vulgare* L.) donlarini har tomonlama farmakognostik va klinik oldi o'rganish natijasida uni tibbiyot amaliyotida yaraga qarshi samarali dori sifatida qo'llash tavsiya etildi.

2. Oddiy arpa donlarining o'ziga xos faolligini belgilovchi biologik faol birikmalar majmuasi mono-, di- va polisaxaridlar, aminokislotalar, vitaminlar, fenolkarbon kislotalar, minerallar bilan ifodalanishi hamda ushbu biologik faol moddalarning asosiy guruhlari tarkibi va miqdori aniqlandi. Oddiy arpa (*Hordeum vulgare* L.) donlarining dominant moddalari polisaxaridlar (24%) ekanligi isbotlandi.

3. Taklif etilayotgan xomashyoni standartlashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borildi, bunda asosiy faol moddalar - polisaxaridlarni sifat va miqdoriy aniqlash usullari taklif qilindi. Shuningdek, xomashyoning chinligi va sifatlilik belgilari hamda uni tayyorlash va saqlash muddatlari tajribalar asosida belgilandi (3 yil).

4. Dastlabki xomashyo bilan birga yaraga qarshi vosita sifatida tavsiya etilgan, faolligi bo'yicha xorijiy analoglardan kam bo'lmagan «Barleynol» quruq ekstrakti hamda, u asosida kapsula shaklida ishlab chiqilgan «Barley E Active» biologik faol qo'shimchasini standartlashtirish bo'yicha amaliy masalalar hal qilindi.

5. Arpa donlarining quruq ekstrakti asosidagi «Barley E active» biologik faol qo'shimchasiga Texnik shartlar (Ts 304475996-02:2020) va uni ishlab chiqarish bo'yicha Texnologik yo'riqnoma (TI 304475996-02:2021) ishlab chiqildi va tasdiqlandi. «Barley E active» biologik faol qo'shimchasini ishlab chiqarish va

qo'llash uchun O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining ruxsatnomasi olindi (№001186 24.12.2021). Bugungi kunga qadar «CORALL PHARM» MChJ arpa donlari quruq ekstrakti asosida «Barley E active» biologik faol qo'shimchasini ishlab chiqarish o'zlashtirildi.

6. «SO'QO'Q GILOSI» FX bilan birgalikda oddiy arpa donlari quruq ekstrakti asosida olingan «Barleynol» dori vositasini tibbiyot amaliyotida qo'llashga ruxsat olish uchun, KFM loyihasi tuzildi va «Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi» Davlat muassasasiga taqdim etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.04/30.12.2019.FAR.32.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
ТАШКЕНТСКОМ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

ТАШКЕНТСКИЙ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

МАМАСОЛИЕВ АБРОРБЕК ИСРОИЛЖОНОВИЧ

**ФАРМАКОГНОСТИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ЗЕРЕН ЯЧМЕНЯ
ОБЫКНОВЕННОГО (*HORDEUM VULGARE* L.), КУЛЬТИВИРУЕМОГО
В УЗБЕКИСТАНЕ**

15.00.02- фармацевтическая химия и фармакогнозия

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент- 2024

Диссертация выполнена в Ташкентском фармацевтическом институте.

Тема докторской диссертации зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2020.2.PhD/Far69.

Диссертация выполнена в Ташкентском фармацевтическом институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.pharmi.uz) и в Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (vwww.ziynet.uz).

Научный руководитель:	Пулатова Дилдора Кахрамоновна кандидат фармацевтических наук, доцент
Официальные оппоненты:	Юлдашев Закирджан Абидович доктор фармацевтических наук, профессор Мусаева Наргиза Абиджановна фармацевтика фанлари доктори
Ведущая организация:	Узбекский научно-исследовательский институт химии и фармацевтики

Защита диссертации состоится «26» 12 2024 года в 14⁰⁰ часов на заседании

Научного совета DSc.04/30.12.2019.FAR.32.01 при Ташкентском фармацевтическом институте (адрес 100015, г. Ташкент, Мирабадский район, ул. Айбека, 45. Тел.: (+99871) 256-37-38. Факс: (+99871) 256-45-04, e-mail: pharmi@pharmi.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Ташкентского фармацевтического института (регистрационный номер _____) по адресу: 100015, г. Ташкент, Мирабадский район, ул. Айбека, 45. Тел.: (+99871) 256-37-38.

Автореферат диссертации разослан «10» 12 2024 года

(реестр протокола рассылки №64 «10» 12 2024 г.).



К.С. Ризаев
Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней, д.м.н.

Ё. С. Кариева
Ученый секретарь научного совета по
присуждению ученых степеней, д.фарм.н,
профессор

Ф.Ф. Урманова
Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению ученых
степеней, д.фарм.н, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Согласно данным Всемирной организации здравоохранения, язвенная болезнь желудка является одним из самых распространенных заболеваний желудочно-кишечного тракта. На основе данных «Global Burden of Disease, Injuries and Risk Factors (GBD) Study» (1990-2019 г.г.) и результатов исследований проведенных в 2019 году в 204 странах и территориях, отмечено порядка 8,1 миллионов случаев язвенной болезни, что означает увеличение на 25,82% с 1990 г. В связи с этим важное значение имеет химический анализ местного лекарственного растительного сырья с использованием современных физико-химических методов, установление связи его фармакотерапевтической эффективности с биологически активными веществами, а также разработка и внедрение в медицинскую практику эффективных малотоксичных препаратов и биологически активных добавок (БАД) противоязвенного действия.

В настоящее время на мировом уровне уделяется большое внимание выявлению и изучению перспективных лекарственных растений противоязвенного действия и созданию безопасных и эффективных лекарственных средств, так же биологически активных добавок на их основе. В этой связи особое внимание уделяется проведению всестороннего исследования местных лекарственных растений, богатых полисахаридами, в частности, изучению динамики накопления биологически активных веществ, их качественному и количественному содержанию, а также стандартизации по достоверным показателям качества, подтверждению соответствия критериям безопасности (количество тяжелых металлов, радионуклидов, пестицидов).

За последние годы в нашей республике проведены масштабные реформы, включающие одну из важнейших задач государства в социально-политической сфере - охрану и укрепление здоровья населения достигнуты определенные результаты в повышении качества медицинского обслуживания. В 22-й цели Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы поставлены такие важные задачи, как «Увеличение объема производства продукции фармацевтической промышленности в 3 раза и доведение уровня обеспечения местного рынка до 80 процентов»¹. В связи с этим важное значение имеет выявление и изучение новых перспективных лекарственных растений отечественной флоры, выделение основных действующих веществ и создание на их основе лекарственных препаратов, биологически активных добавок, а также разработка и утверждение нормативных документов с целью внедрения их в медицинскую практику.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных Указами Президента Республики Узбекистан УП-5707 от 10 апреля 2019 года «О дальнейших мерах по

¹Указ Президента Республики Узбекистан №УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

ускоренному развитию фармацевтической отрасли республики в 2019-2021 годах», УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», УП-139 от 20 мая 2022 года «О мерах по созданию цепочки добавленной стоимости посредством эффективного использования сырьевой базы и поддержки переработки лекарственных растений», Постановлениями ПП-4554 от 30 декабря 2019 года «О дополнительных мерах по углублению реформ в фармацевтической отрасли Республики Узбекистан», ПП-4670 от 10 апреля 2020 года «О мерах по охране, культурному выращиванию, переработке дикорастущих лекарственных растений и рациональному использованию имеющихся ресурсов», а также другими нормативно-правовыми документами, принятыми в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики VI. «Медицина и фармакология».

